



## TURIZIM VA SAYOHAT

Dilbar Shomurodova

SamDCHTI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizim beznesining rivojlanishi, dunyoning deyarli istalgan nuqtasiga sayohatlar deyarli odatiy holga aylangan. Bunda turizim sohasida internet, mehmonxona va ovqatlanish tarmoqlarini sifatini oshirishga bo'lgan talab va takliflar kundan – kunga oshib bormoqda. Viloyatdagi turistik markazlarni, sayyoqlik kompaniyalarini xizmatlarini ruvojlantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** sayyoqlik bozori, turizm faoliyati, internet sifati, sayyoqlik, internet, turizm bozori, turist...

Hech kimga sir emaski, O'zbekiston o'zining boy madaniy va tarixiy merosi, betakror me'morchiligi va san'atiga ega. Toshkent, Samarkand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Urganch, Termiz, Qoraqalpog'istonning qadimiylarini obidalari O'zbekistondagi tarixiy va ma'rifiy turizmning asosiy poydevori hisoblanadi. Ha biz shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimizni dunyoga tanita olamiz. Buning uchun bizda arzigelik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Mamlakatimizda 7000dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud. Bularning aksariyati YUNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, bu O'zbekistonning jahon sayyoqlik bozoridagi ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Yozgi ta'tilda u yoki bu sayohatni rejalashtirayotganda, ko'pchiligidan turizmga bag'ishlangan ko'plab nashrlarni varaqlashni boshlaymiz, ularda nafaqat ekzotik kurortning diqqatga sazovor joylari haqidagi maqolalar, balki ushu joylarning rang-barang, ko'plab rasmlari ham mavjud. Dunyoning barcha mamlakatlarida dam olishingiz uchun turizim va sayyoqlik agentliklari haqida bir qator foydali maqolalar mavjud. Jumladan, ushu maqolalarda hududning iqlimi, mintaqasi, ob-havosi, hududdagi xavfsizlik xizmatlari, shaharning diqqatga sazovor bo'lgan joylarini ziyorat qilish haqidagi ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, sayyoqlik olamida maxsus agentliklari o'zining mijozlariga yangidan yangi qiziqarli bo'lgan yo'nalishlarni taklif qiladi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, internet sifati bilan bog'liq muammolar ko'plab kuzatiladi. Internet aloqa sifati oshirilsa turizm rivojlanishini yaqin kelajakda yuqori cho'qqilarga olib chiqadi. Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda turizmning mamlakatdagi yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirishda yordam beradigan firma va tashkilotlarning soni ham sezilarli darajada kam. Mamlakatimizning betakror tabiatni, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi turistik markazlar ochish mumkin. Samarkand, Buxoro, Toshkent

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



shaharlaridagi muqaddas bo'lgan tarixiy yodgorliklarni yanada rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Turmush tarzimizda internet kabi foydali narsaning sifatini oshirsak, ta'tilni rejalashtirish va keyingi sayohat uchun joy topish biz uchun qiziqarli sarguzashtga aylanadi. Bunday qulaylik yaratilgandan keyin internetga ulangan kompyuter yoki World Wide Web tarmog'iga simsiz ularish imkoniyatiga ega zamonaviy smartfoningiz bo'lisa bas.

O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi olib boradi. Bu kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish va chet eldag'i sarmoyalarni yurtimizga kiritishdan iboratdir. Bugungi kunda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan tarmoqlardan biri ham bu turizmdir.

Ba'zi sayohat maqolalarida aytigandanidek, «turizm» va «sayohat» biroz boshqacha narsalardir. Ya'ni, deyarli barcha sayohatchilar uzoq va unchalik ma'lum bo'lмаган mamlakatlarga sayohat qilish maqsadini nafaqat o'zlari uchun, balki kengroq auditoriya uchun ham yangi narsalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishadi.

Yurtimiz ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilyapti shu jumladan turizim sohasida ham. Turizimni rivojlantirmoqchi bo'lgan barcha tadbirkorlarimizni qo'llab quvvatlab, ularga keng imkoniyatlarni yaratib berishimiz zarur.

Vatanimizning nomini Yevropa va boshqa davlatlarga tanitishimiz uchun, urfatlarimiz va an'analarimiz, milliy qadriyat va boy tarixiy merosimiz haqida hujjatli va badiiy filmlari olinsa va ular yaratgan filmlarni boshqa tillarga tarjima qilinib, xalqaro konkurslarda qatnashsa, sayyoхlar soni yanayam oshishi tayin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TO'PLAMI:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,
2. Abidova D., Meliboyev U. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish,
3. Aliyeva M.T. Mehmonxona menejmenti.